SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)*



# Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-iyul oyida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-iyul oyida Viloyat korxonalari tomonidan 3618,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86,4 % ni tashkil etdi.

| B | C | D | E |
|---|---|---|---|
| 2,7 % | 86,4 % | 9,1 % | 1,8 % |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul |
|---|---|---|
| B | 54,2 % | 60,5 % |
| C | 109,8 % | 104,3 % |
| D | 125,7 % | 160,3 % |
| E | 83,9 % | 109,2 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 60,3 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,3 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 96,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ko‘mir, ming t. | 164,4 | 144,5 | -19,9 |
| Neft, ming t. | - | 49,7 | 49,7 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Qattiq tuz, ming t. | 13,1 | 12,6 | -0,5 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 45,0 | 42,1 | -2,9 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3126,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,4 % ini tashkil etdi.*

**2021- yil yanvar-iyul** 88,2 %

**2022- yil yanvar-iyul** 86,4 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 21,8 % (21,7 %) va quyi texnologiyalisi – 63,6 % (65,9 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,7 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 83,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 42,6 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,8 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*





















*2022- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9,0 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 30,7 % ga kamaygan), 37,3 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut) (4,2 % ga ko‘paygan) 31,7 ming tonna kalava ip (5,9 % ga ko‘paygan), 37,3 ming tonna neft bitumi (4,2 % ga ko‘paygan) hamda ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi, ming t.** | 13,0 | 9,0 | -4,0 |
| **Kalava ip, ming t.** | 23,9 | 31,7 | 7,8 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg‘isi (mazut), ming t.** | 35,8 | 37,3 | -1,5 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 67,2 | 63,3 | -3,9 |
| **Sariyog‘, t.** | 0,6 | 0,8 | 0,2 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 2,2 | 2,1 | -0,1 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,3 m. ga o‘sgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa, 83,6 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 47,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 84,9 % ga kaiyulgan va ishlab chiqarish hajmi 214,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,1 % ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 606,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 72,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 19,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 141,4 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 106,3 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1395,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 %, fizik hajm indeksi 66,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 146,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 104,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 124,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 13,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 88,3 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni, fizik hajm indeksi 99,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 311,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 147,0 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 60,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 13,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 329,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 160,3 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 118,5 | 177,1 | -1,4 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 23,4 | 20,5 | -2,9 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 3,7 | 2,9 | -0,8 |
| **Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 13,4 | 16,1 | 2,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 34,6 mlrd. so‘m, oqova suvlarini yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,9 mlrd. so‘m shuningdek, 16,1 mlrd. so‘m boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1293,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021- yil yanvar-iyul** **44,4 %**

**2022- yil yanvar-iyul** **44,9 %**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021- yil yanvar-iyul** **55,6 %**

**2022- yil yanvar-iyul** **55,1 %**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2021- yil yanvar-iyul oylarida 0,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumani 15,3 % ni, 12,9 % Sho‘rchi tumaniga to‘g‘ri kelib Termiz sh. 16,7 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida Viloyat o‘sish sur’ati (111,9 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Qumqo‘rg‘on (165,4 %), Termiz (160,0 %), Sariosiyo (149,9 %) , Jarqo‘rg‘on (138,1 %), Angor (136,2 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumani 15,3 % ni, Sho‘rchi tumaniga to‘g‘ri kelib 12,9 % ni, Termiz sh. 16,7 % ni tashkil etdi.*




***1111,9*** *mlrd. so‘m*

*2020- yil yanvar-iyul*

***1125,7*** *mlrd. so‘m*

*2021- yil yanvar-iyul*

***1293,7*** *mlrd. so‘m*

*2022- yil yanvar-iyul*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi



## Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumaniga to‘g‘ri kelib 17,9 % ni, shuningdek, Sherobod tumani 8,5 % ni, Termiz shahri esa 19,1 % ni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
**2775,0 mlrd. so‘m**
*2020- yil yanvar-iyul*

**2021- yil**
**3015,8 mlrd. so‘m**
*2021- yil yanvar-iyul*

**2022- yil**
**3618,5 mlrd. so‘m**
*2022- yil yanvar-iyul*



**105,5 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-iyul*

**105,1 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-iyul*

**105,3 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-iyul*



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobigaTermiz shahri (3614,3 so‘m), Jarqo‘rg‘on (2836,8 ming so‘m),Termiz (2887,3 ming so‘m) hamda Sherobod (1525,2 so‘m) tumanlarida o‘rtacha Viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1312,4 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil** — 1050,7 ming so‘m
*2020- yil yanvar-iyul*

**2021- yil** — 1119,4 ming so‘m
*2021- yil yanvar-iyul*

**2022- yil** — 1312,4 ming so‘m
*2022- yil yanvar-iyul*



01 — 2020- yil — 103,7 %
*2020- yil yanvar-iyul*

02 — 2021- yil — 103,0 %
*2021- yil yanvar-iyul*

03 — 2022- yil — 102,9 %
*2022- yil yanvar-iyul*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 469,2 ming so‘m bo‘lgani holda, Termiz shahrida – 1128,7 ming so‘mni, Termiz tumanida – 1125,1 ming so‘mni, Jarqo‘rg‘on tumanida – 869,9 ming so‘mni va Sho‘rchi tumanida – 762,9 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Surxondaryo Viloyati

**2020- yil**
**421,0 ming so‘m**
*2020- yil yanvar-iyul*

**2021- yil**
**1113,7 ming so‘m**
*2021- yil yanvar-iyul*

**2022- yil**
**469,2 ming so‘m**
*2022- yil yanvar-iyul*



**100,1 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-iyul*

**112,2 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-iyul*

**109,3 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-iyul*



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1140,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,4 % ni tashkil etdi.*




### Surxondaryo viloyati

**2020- yil**
**1265,1 mlrd. so‘m**
*2020- yil yanvar-iyul*

**2021- yil**
**1273,1 mlrd. so‘m**
*2021- yil yanvar-iyul*

**2022- yil**
**1394,7 mlrd. so‘m**
*2022- yil yanvar-iyul*



**45,6 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-iyul*

**42,2 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-iyul*

**38,5 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-iyul*

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda Viloyatda 4 721 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 823 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 17,4 % i) Termiz shahriga, 543 tasi (11,5 %) Denov tumaniga, 368 tasi (7,8 %) Sho‘rchi tumaniga, 314 tasi (6,7 %) Qumqo‘rg‘on tumaniga va 296 tasi (6,3 %) Termez tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020- yil** — 1326 dona

**2021- yil** — 861 dona

**2022- yil** — 861 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 3751 dona

**2021- yil** — 4501 dona

**2022- yil** — 4 721 dona